



ISSN 2181-1296

ILMIY AXBOROTNOMA

НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК

SCIENTIFIC JOURNAL

2022-yil, 2-son (132) GUMANITAR FANLAR SERIYASI

Tarix, Falsafa, Huquqshunoslik, Iqtisodiyot, O'qitish metodikasi

Samarqand viloyat matbuot boshqarmasida ro'yxatdan o'tish tartibi 09-25.
Jurnal 1999-yildan chop qilina boshlagan va OAK ro'yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARLARI:

R. I. XALMURADOV, t.f.d. professor

H.A. XUSHVAQTOV, f-m.f.d., dotsent

A. M. NASIMOV, t.f.d., professor

TAHRIRIYAT KENGASHI:

S. S. G'ULOMOV	- O'zFA akademigi
A. SAGDULLAEV	- O'zFA akademigi
M. MUXIDDINOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
B. E. ERGASHEV	- t.f.d., professor (SamDU)
B. S. G'OYIBOV	- t.f.d., professor (SamDU)
S. K. KARIMOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
J. Ya. YAXSHILIKOV	- fals.f.d., professor (SamDU)
N. U. ARABOV	- i.f.d., professor (SamDU)
Sh. A. HASANOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
S. A. KARIMOV	- fil.f.d., professor (SamDU)
N. Sh. SHODIEV	- ped.f.d., professor (SamDU)
M.M. MAXMUDOVA	- ped.f.d., professor (SamDU)
NAZIF SHAHRANY	- Indiana universiteti professori (AQSh)
MUSTAFA UGURLU	- профессор (Муғла университети, Туркия)
N.T.NURULLAXODJAYEVA	- professor (Moskva Davlat universiteti, Rossiya)
TAMIR KLEIN	- Veysman ilmiy tadqiqot instituti professori (Isroil)
HIROAKI HUZIE	- Osaka universiteti professori (Yaponiya)

Obuna indeksi – yakka tartbidagi obunachilar uchun - 5583,
tashkilot, korxonalar uchun - 5584

MUNDARIJA / СОДЕРЖАНИЕ / CONTENTS

TARIX / HISTORY

<i>Azimbaeva Sh.A.</i> Внешняя политика Великобритании в центральной Азии в торгово-экономической сфере	4-9
<i>Temirova Sh.V.</i> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan aholini ko'chirish siyosatida transformatsion jarayonlar	10-16
<i>Buriyev Z.T.</i> XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Rossiya imperiyasi tomonidan Kaspiyorti viloyatiga aholini ko'chirish siyosati	17-20
<i>Baratov H.</i> Turk xoqonligi davrida Kesh hududida kechgan siyosiy vaziyatidagi ayrim masalalar	21-24
<i>Shukurov S.J.</i> Kesh shahrining tarixiy topografiyasi	25-31
<i>Muxamedov Sh.B.</i> «Туркестанский сборник» - как феномен научной жизни Ташкента и Центральной Азии	32-36
<i>Xalilova Z.E.</i> XX asr boshida Samarqand ta'lim tizimida o'quv darsliklar holati	37-41
<i>Jamolova D.</i> Turkiston jadidchilik harakatida xotin-qizlarning tutgan o'rni	42-45

FALSAFA / PHILOSOPHY

<i>Ergashev S.M.</i> Turkiston ma'rifatparvarlarining ayanchli qismati	46-50
<i>Xonimov Sh.</i> O'zbekistonda yoshlar siyosiy va huquqiy madaniyatini rivojlantirishga oid qarashlar	51-54
<i>Karimov S.</i> Komil insonni tarbiyalashda tasavvuf ta'limotining o'rni va roli	55-59
<i>Negmatova Sh.Sh.</i> Nikollo Makiavelli va Muxammad Qozining siyosiy qarashlari (qiyosiy tahlil)	60-63
<i>Gulamova M.T.</i> Axmad Ziyuddin Al-Kumushxonaviyning ilmiy merosida valiylik karomatlarini haqida	64-67
<i>Djurakulov X.</i> Ekoturizmni rivojlantirishda ekologik jamoat tashkilotlarining ustuvor asoslari	68-72
<i>Shakarov J.</i> Raqobat jarayoniga yoshlarda axloqiy munosabatni shakllantirish	73-77
<i>Xudayqulov D.</i> “Temur Tuzuklari”da axloqiy me'yorlar talqini	78-82
<i>Mirzayeva F.A.</i> Ahmad Sirhindiyning “Maktubot” asarida tasavvuf ta'limotiga doir masalalarning bayoni	83-87
<i>Abduazimova Z.A.</i> Environmental ethics and its forms of manifestation in society	88-93

<i>Bekmurodova G.</i>	Sotsial destruksiya va uning asosiy xususiyatlari	94-97
<i>Tulyayev A.I.</i>	Axloqiy bilimlarning ijtimoiy zaruriyatga aylanish prinsiplari	98-101
<i>Shadimetova G.M.</i>	Milliy bayramlarda falsafiy-ma'naviy tushunchalar mazmuni	102-105
<i>Nomozov X.Sh.</i>	O'smirlar orasida ijtimoiylashuvda internet ta'siri	106-110
<i>Akramov M.M.</i>	O'zbekistonning yoshlarga doir davlat siyosatida kinematografiyaning ahamiyati	111-118
<i>Tanikulov J.A.</i>	Jamoatchilik fikriga ta'sir etuvchi media axborot elementlari	119-123
<i>Mamatov Z.M.</i>	Globalashuv jarayonida yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida tarbiyalash muammolari	124-129

HUQUQSHUNOSLIK / JURISPRUDENCE

<i>Muqimov Z.Y.</i>	“Temurshunoslik” fanida Amir Temurning jahon tamadduniga qo`shgan hissasi masalalari	130-133
----------------------------	--	---------

SOTSILOGIYA / SOCIOLOGY

<i>Tagiyeva G.G.</i>	Ijtimoiy ta'minot tizimining ilmiy–nazariy asoslari	134-138
-----------------------------	---	---------

O'QITISH METODIKASI / TEACHING METHODOLOGY

<i>Raupova M.H.</i>	Oliy ta'limda kvaziprofessional faoliyat: muammolari va istiqbollari	139-143
<i>Raximov N., Ro'ziyev M.</i>	Taqqoslama va uning ba'zi murakkab masalalarni yechishga tatbiqlari	144-148
<i>Мурфайзиева К.Ю., Хайдарова И.А.</i>	Онлайн-уроки в условиях пандемии	149-152
<i>Tashmatova R.V., Muhamadiyev N.Q., Muhamadiyeva X.Q., Tug'izov Y.M., Samiyev A.A.</i>	Kimyoviy masalalarni o'ziga xos tomonlari va ularni echishda matematik usullardan foydalanish	153-159
<i>Муллажоновна Н.</i>	Аппликация как всестороннее развитие детей дошкольного возраста на занятиях изобразительной деятельности	160-164
<i>Ummatov A.A., Ashurkova S.F.</i>	Milliy reyting tizimi O'zbekiston oliygohlarining xalqaro zamonaviy voleybolga xos himoya harakatlarini modellashtirilgan tartibda shakllantirish	165-168

Mualliflarga

UDK:9:39(575.1)

TURKISTON JADIDCHILIK HARAKATIDA XOTIN-QIZLARNING TUTGAN O'RNI

D.Jamolova

O'zbekiston FA Tarix instituti

Annotatsiya. XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkistonda vujudga kelgan jadidchilik harakati ta'sirida mintaqa xotin-qizlari ham zamonaviy ilmlarni egallash, jamiyat hayotida munosib o'rin egallash uchun harakat boshladilar. Ushbu maqolada turkistonlik jadidchi ayollar va ularning islohotchilik harakatida tutgan o'rni haqida ma'lumot beriladi.

Kalit so'zlar: jadid, ulamo, jamiyat, maktab, ta'lim, saylov, muallima, gazeta, jurnal, islohot.

Роль женщин в джадидском движении Туркестана

Аннотация. В конце 19-го в начале 20 века под влиянием джадидского движения в Туркестанском регионе женщины стали стремиться получить образование и иметь достойное место в обществе. В данной статье представлена информация о туркестанских джадид женщинах и их роли в реформаторском движении.

Ключевые слова: джадид, улем, общество, школа, образование, выборы, учительница, газета, журнал, реформа.

The role of women in the Jadid movement in Turkestan

Abstract. In the late 19th and early 20th centuries, under the influence of the Jadid movement in Turkestan, the women of the region began to strive for modern knowledge and a worthy place in society. This paper provides information about Turkestan Jadid women and their role in the reform movement.

Key words: jadid, ulema, society, school, education, elections, teacher, newspaper, magazine, reform.

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat bo'lib, unga qrim-tatar ziyolisi Ismoilbek G'asparali asos solgan. Tez orada bu harakat butun Turkiston mintaqasida tarqalib, Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Xivada hur fikrli va taraqqiyparvarning madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyatlari hamda uyushmalarida shakllangan. Ular xalqning umumjahon taraqqiyotidan ortda qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetganlar. Harakatning asosiy g'oya va maqsadlari islom diniga kirib qolgan xurofotlarni bartaraf etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, maktab va madrasalardagi ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablari tashkil etish kabilardan iborat bo'lgan. Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatda nufuzini ko'tarish, ularning ta'lim olishi, jamiyatda ayollarga nisbatan qarash va munosabatlarni o'zgartirish masalasida ham ilg'or fikrlarni aytib, bu qarashlarni amalga oshishiga sababchi bo'lganlar.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, So'fizoda, Zuhridin Fathiddinzoda, Rauf Muzaffarzoda, Abdulla Avloniy, Tavallo, Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja, Hamza kabilar vaqti matbuot sahifalarida o'zbek xotin-qizlari ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy hayotini, kundalik turmushini, ularning ilm-fanga, hunarga bo'lgan munosabatlarini yoritib beruvchi turkum maqolalar va asarlar yozganlar. Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy va Buxoro jadidchilik harakatining asoschilaridan Sadriddin Ayniy qizlar tarbiyasi haqida gapirib, ularni ehtiyotlab voyaga yetkazish kerakligi, ilmli qilish zarurligini uqtirgan bo'lsalar [1], Abdurauf Fitrat farzandlarini yaxshi xulq egalari, ya'ni iymonli, fidokor, g'ayratli bo'lib ulg'ayishlari, islom taraqqiyotiga muvofiq bo'lishlari, din va dindoshlarini halokat va xarobalikdan qutqarishlari uchun xotin-qizlar – millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari lozim, deb hisoblagan [2: 97-98]. Abdulla Avloniy esa xotin-qizlar jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligini uqtirib, ularning ta'lim olishlari va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishlariga sharoit yaratib berish kerakligini ta'kidlagan [3: 136-138].

Jadidchilik XIX asr oxiri – XX asr boshlarida Turkiston, Kavkaz, Qrim, Tatariston hayotida muhim ahamiyat kasb etgan ijtimoiy-siyosiy, ma'rifiy harakat bo'lib, unga qrim-tatar ziyolisi Ismoilbek G'asparali asos solgan. Tez orada bu harakat butun Turkiston mintaqasida tarqalib, Toshkent, Farg'ona, Buxoro, Samarqand, Xivada hur fikrli va taraqqiyparvarning madaniy-ma'rifiy yo'nalishdagi jamiyatlari hamda uyushmalarida shakllangan. Ular xalqning umumjahon taraqqiyotidan

ortda qolayotganligini his etib, jamiyatni isloh qilish zaruriyatini tushunib yetganlar. Harakatning asosiy g'oya va maqsadlari islom diniga kirib qolgan xurofotlarni bartaraf etish, shariatni isloh qilish, xalqqa ma'rifat tarqatish, maktab va madrasalardagi ta'lim tizimini isloh qilish, yangi usul maktablari tashkil etish kabilardan iborat bo'lgan. Shuningdek, xotin-qizlarning jamiyatda nufuzini ko'tarish, ularning ta'lim olishi, jamiyatda ayollarga nisbatan qarash va munosabatlarni o'zgartirish masalasida ham ilg'or fikrlarni aytib, bu qarashlarni amalga oshishiga sababchi bo'lganlar.

Jadidchilik harakatining yirik namoyandalari Mahmudxo'ja Behbudiy, Hoji Muin, Sadriddin Ayniy, Abdurauf Fitrat, So'fizoda, Zuhridin Fathiddinzoda, Rauf Muzaffarzoda, Abdulla Avloniy, Tavallo, Cho'lpon, Ubaydullaxo'ja, Hamza kabilar vaqti matbuot sahifalarida o'zbek xotin-qizlari ma'naviy, ijtimoiy, siyosiy hayotini, kundalik turmushini, ularning ilm-fanga, hunarga bo'lgan munosabatlarini yoritib beruvchi turkum maqolalar va asarlar yozganlar. Turkiston jadidlarining otasi Mahmudxo'ja Behbudiy va Buxoro jadidchilik harakatining asoschilaridan Sadriddin Ayniy qizlar tarbiyasi haqida gapirib, ularni ehtiyotlab voyaga yetkazish kerakligi, ilmiy qilish zarurligini uqtirgan bo'lsalar [1], Abdurauf Fitrat farzandlarini yaxshi xulq egalari, ya'ni iymonli, fidokor, g'ayratli bo'lib ulg'ayishlari, islom taraqqiyotiga muvofiq bo'lishlari, din va dindoshlarini halokat va xarobalikdan qutqarishlari uchun xotin-qizlar – millat onalari tarbiya va ilm olishlari, axloq va bilimlarini kamolga yetkazishlari lozim, deb hisoblagan [2: 97-98]. Abdulla Avloniy esa xotin-qizlar jamiyatning teng huquqli a'zosi ekanligini uqtirib, ularning ta'lim olishlari va jamiyatda o'zining munosib o'rnini topishlariga sharoit yaratib berish kerakligini ta'kidlagan [3: 136-138].

1906-yilda qo'qonlik Tojiyaxonim ismli taraqqiyparvar ayol Ismoilbek G'asparalining qizi Shafiqaxonimga maktub yo'llaydi va bu xat to'laligicha uning muharrirligida chiqayotgan "Ilm nisvon" nomli ayollar gazetasida chop etiladi [7: 36]. "Hurmatli Shafiq xanum, biz kamtarona holda quyidagilarni ma'lum qilamiz..." deb boshlanuvchi nomada Rossiyada erkinlik, huquqlar va islohotlarga katta e'tibor berilayotgani, Qrim va Qozon ayollari ham o'ziga xos haftalik nashrga ega ekanligini ta'kidlab, turkistonlik ayollarning ko'p narsadan bexabarligi, hamon uyquda ekanligini kuyunib yozadi. "Agar bizning ahvolimiz haqida bayon qilinsa, kelajagimiz islohotlar orqali yaxshilanishi mumkin va biz o'z huquqlarimizga ega bo'lardik. Biroq bu amalga oshadimi? Biz hammamiz ilm va ta'limga muhtojmiz! Biz hozir bilim olmasak, kelajakda ham buning iloji bo'lmaydi. Bu jahonda biz kabi musulmon ayollaridek huquqlaridan mahrumlar bo'lmasa kerak..."

Biz o'z farzandlarimizni o'zimiz kabi ilmsiz qilib tarbiyalashni istamaymiz. Biz, farzanlarimiz uchun qizlar maktabi ochishga urinayotgan no'g'ay o'qituvchilariga yordam qila olmayapmiz. Bizning ilm olishga bo'lgan urinishlarimiz bizga yo'l ochib bermay, qiyinchilik tug'dirib, dong qotib qolganimiz tan olinishi zarur. Agar shu yo'lda davom etadigan bo'lsak, bir kun, biz, musulmon ayollarining nomi tarix sahifalarida nafrat bilan tilga olinishi tayin. Bizga o'z holimizni o'zgartirishga, islohotlarni amalga oshirishga, (ulardan) o'rnak olishga izn bering! Farzandlarimiz, o'g'il va qizlarimizni no'g'ay maktabiga yuborishga yo'l bering!", deb yozadi [7: 37]. Tojiyaxonim turkistonlik ayollarning o'z huquqlarini bilmasligi va ularni qutqarishning yagona yo'li – ularga zamonaviy ta'lim berish ekanligiga urg'u beradi.

1907-yilda yana bir turkistonlik ayol Nojiyaxonim Rossiya Davlat Dumasining musulmon a'zolariga maktub yozib, shariyat qonunlarida ayollarga tijorat bilan shug'ullanish va Hajga sayohat qilish kabi huquqlar berilgani, Turkiya va Misr ayollari bu huquqlardan foydalanayotganliklarini ta'kidlab, turkistonlik ayollarning erkaklar tomonidan to'rt devor orasida olib o'tirganidan shikoyat qiladi hamda Dumadan turkistonlik ayollarga bu huquqlarni tiklashga yordam berishlarini so'raydi [7: 49-50].

1905-1907-yillarda Rossiyada sodir bo'lgan o'zgarishlar ta'sirida Turkistonda ayollarning o'z haq-huquqlarini tiklash borasida boshlagan harakatlari o'z natijasini bera boshlaydi. Jamiyatning ziyoli qatlamlari o'g'il farzandlari bilan birga qizlarini ham jadid, shuningdek, rus-tuzem maktablarida o'qita boshladilar. Ayollarning jamiyatdagi faollashuvi mutaassib ulamolarning noroziligiga sabab bo'lib, bu qarashlar o'sha davr matbuotida ham o'z aksini topadi. "Turkiston viloyatining gazetisi" va "Al-isloh" jurnali sahifalarida ayollarning maktabda tahsil olishi, jamiyat hayotiga dadil kirib kelishi qoralanadi [8]. Bu paytda Turkistonda ayollar ancha faollashgan bo'lib, ular muallimlik, tabiblik va ayollarga xos boshqa kasblar bilan mashg'ul edilar. Davriy matbuot bilan muntazam tanishib borib, tahririyatga o'z fikr-mulohazalarini ham yo'llab turardilar.

Turkistonlik ziyoli ayollarning ko'zga ko'ringan yorqin vakillaridan biri, jadid shoirasi Nozimaxonim (1870-1924) bo'lib, u 1870-yilda Toshkentning Beshyog'och dahasida tug'ilgan (Ayrim adabiyotlarda 1864-yilda tug'ilgan deyiladi). Uning otasi Mulla Said Ahmad zamonasining peshqadam kishilaridan bo'lgan. Qizining madaniyatli va ma'rifatli bo'lib yetishuvi uchun dastlab eski maktabda,

so'ngra mahalliy xotin-qizlar uchun ochilgan rus-tuzem maktabda o'qitgan. O'z faoliyatini Toshkentdagi qizlar maktabida muallimlik qilishdan boshlagan Nozimaxonim rus tilida erkin gaplasha olgan, Orenburg va Qozonda chiqib turgan matbuotni muntazam kuzatib, o'z o'quvchilariga Rusiya ayollari hayotidan qiziqarli hikoyalar so'zlab bergan [9: 1-4].

Nozimaxonim o'z davrining madaniyatli, ilg'or qarashli ayoli bo'lib, erkparvarlik g'oyalarining targ'ibotchisi edi. Bu hol uning dastlabki maqola va she'rlaridayoq aniq ko'rinadi. Uning 1904-yilda "Turkiston viloyatining gazetisi"da bosilgan maqolalaridan biri "Insonga qancha erk darkor?" deb nomlangan edi. So'ng ketma-ket mahalliy matbuot sahifalarida "Xotinlar huquqiga oid", "Ilm va maorif borasida bir-ikki so'z" kabi maqolalari chop etilgan [10: 212]. Ularda o'zbek ayolining tutqun va turg'un jamiyatdagi roli va o'rnini masalasini olib chiqdi. Bu yo'ldagi har qanday ozodlik hapakatlariga xayrixohlik bildirdi. Ularni qo'llab-quvvatladi. Maqolalar mazmuni, ruhi bilan Turkistonda ozodlik g'oyalarining yoyilishida, xotin-qizlar o'rtasida demokratik intilishning kuchayishiga xizmat qildi.

Nozimaxonim dunyoni suv bossa to'pig'iga chiqmaydigan, o'zining mahalladagi obro'yidan boshqa narsani o'ylamaydigan millatdoshlarining mazmunsiz hayotiga razm solgan va "Faryod" sarlavhali she'rida Turkiston ijtimoiy turmushini ko'rsatib bergan. Nozimaxonim bu she'rida o'sha paytda Turkiston jamiyatida avj olgan isroflilik to'ylar va oilaviy marosimlarni tanqid qilib, boqimanda kayfiyatida yashayotgan insonlarning choyxonalarda to'planib o'tirishlarini qoralaydi. Taraqqiyotga to'sqinlik qiluvchi bu kabi illatlardan xalos bo'lish kerakligini ta'kidlaydi [11].

Qo'qonlik ma'rifatparvar ayollardan yana biri Laylixonim bo'lib, uning tarjimai holi bizga ma'lum emas. Fors tilida ijod qilgan shoira "Sadoyi Turkiston" gazetasida jadidlarning qutlab "Tabriknoma" yozgan bo'lib, jadidlarning islohotchilik harakatlarini qo'llab-quvvatlaydi. Ular asos solgan gazeta va jurnallarning ilmiy, ma'naviy va ma'rifiy ahamiyatini ta'kidlab, fikrini "Laylining qalami Sadoyi Turkiston jaridasiga tabrik yozdi. Sadoyi Turkiston ovozi abadiy boqiy qolsin [12]", deb yakunlaydi.

Toshkentlik yana bir jadid ayol "Toshkentlik muallima" imzosi ostida "Sadoyi Turkiston" sahifalarida islohotga chorlovchi maqolalari bilan ishtirok etib borgan. Gazetaning 1914-yil 11-sonida chop etilgan "Turkiston musulmalari tarafidan bir sado" maqolasida Turkiston jamiyatidagi muammolarni tanqid ostiga olgan. "Muqaddas vatanimiz bo'lg'an Turkiston mamlakati tuproq, suv va havo jihatidan eng yaxshi va boy bir yurt bo'lib turib na uchun o'zimiz hanuz mundan lozimincha foydalana olmaymiz? Va foydalanmakni ham hech bir xotiramizga kelturmeymiz? Sababi sanoat va tijorat kabi zamona ilmlaridan xabarsizligimiz, Alloh taolo tomonidan bandalariga ehson qilingan shunday ilmlardan ko'z yumub o'z foyda va zararimizni farq qilolmaganimizdir. Xulosa o'zimizni ahli zamondan ilmsizligimizni iqror qilib, jaholat va nodonlik zindonida qolganligimizdir", deb yozadi. Turkiston mintaqasida yashovchi yahudiylar va armanlarning bilimdonligi va tadbirkorligini ta'riflab: "... yer, suvlarimiz orqasida davlatlik va moldor bo'ldilar va o'z millatlarining maktab, madrasa va jamiyatlariga ko'b ko'b yordamlar berub, xayr-ehsonlarini ziyoda qilmakdadir", deb ta'kidlaydi. Turkistonliklar esa zamonaviy bilimlardan bebahra ekanliklari, topgan pullarini to'y va aza kabi behuda bid'at ishlarga sarf qilayotganliklari, isrofgarchilikning eng yuqori cho'qqisiga yetganliklarini uqtirib: "Gazetalarda boshqa shaharlarda maktab, jamiyat, shirkat, tijoratxona, qiroatxona va boshqacha muhim-muhim muassasalar ochilgan xabarlarini har kun o'qub turamiz. Doxiliy Rusiyadagi musulmon va rus vatandoshlarimiz shunday tirishub kunda kunga taraqqiy qilib turgan hollarida, o'n million nafarli bizim Turkiston musulmonlari hanuz tag'oful va jaholatdan bosh tortmaydilar" [13], deb kuyunib yozadi.

"Sadoyi Turkiston" gazetasi islohotparvar ayollar uchun minbar vazifasini bajarish bilan birga, ularning jamiyatning to'la huquqli a'zosi sifatida maktablarda ta'lim olishini, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar ishtirokchisiga aylanishini qo'llab-quvvatlab turdi. Jumladan, gazetadagi "Xonimlar tovushi" maqolasida ayollar masalasiga alohida to'xtalib, ilova tarzida Podshoxonim Jalil qizining tahririyatga yozgan maktubi chop etilgan:

Muhtaram muharrir afandi! Ushbu maktubimni jaridangizning bir go'shasina darj etmog'ingizni millat nomina rijo qilurman.

Ey musulmon qardoshlar! Shuncha vaqt ilm va maorifdan mahrum bo'lub jaholat zindonida yotganimiz yetar endi. Bitsun jaholat va g'afolat, bitsun oramizdagi rusum va odat. Ey, o'g'il-qiz tarbiya qilg'uchi ota-onalar! Biroz insof qilib o'ylab ko'ring. Yetar endi bizning aziz umrimizni falak ko'rpa, gul ko'rpa, qoziq lungi kabi dunyo va oxiratda foydasi bo'lmag'an sandiqlar ichinda churub ketadurg'on latta-puttalar tikdurub o'tkarganlaringiz. Bunday foydasiz narsalarga sarf qiladurgan pullaringiz ila bizg'a tartibli maktablar ochub beringiz, biz ham o'qub gardanimizdagi farzni ado

qilmaq ila barobar din va dunyomizg'a keraklik ilmlarni bilub olayluk. Bizdan ham muallima va muharrirlar yetishduringiz. Toki o'z hamshiralimizg'a ta'lim din va dunyo qilaylik. Va o'z ahvolimizni jaridalarg'a yozib muzokara va mushavara qilayluk. Yetar endi bizdan buncha beparvo bo'lub g'aflat va nodonlikda saqlag'aningiz. Bizga ham din kerak. Ilm kerak. Insof qiling [14]!

Maqola so'ngida gazeta muharriri ayollarning talab va iltimoslarini inobatga olib, ular uchun maxsus maktablar ochish zamoni kelganini ta'kidlab, amaldorlar, ulamolar va ma'rifatparvarlarni bu ishda bosh-qosh bo'lishga chaqiradi.

Birinchi jahon urushi yillarida Rossiya tomonidan asirlikka olingan turk suboylarining xotiralarida 1918-yillarda jadid maktablarida ayol muallimalar ham dars berganligi haqidagi ma'lumotlar uchraydi [15]. Turk suboyi Roji Chaqiro'zning yozishicha, 1918-yilda Toshkentda 72 ta jadid maktabi faoliyat olib borar, ularga o'qituvchilar yetishmas edi. Roji Chaqiro'zning quroldosh do'stalaridan Haydar Shavqiy Ko'kcha mahallasidagi "Namuna" maktabida, G'olib Mergancha mahallasidagi "Turon" maktabida, Shukriy "Muxtoriyat" maktabida, Said Ahroriy Beshyog'och mahallasidagi "Turon" maktabida o'qituvchilik qilishgan. Uning o'zi esa Mergancha mahallasidagi "Turon" maktabida o'qituvchilikni boshlaydi [16: 32]. Bu paytda "Turon" maktabida rus tili fanidan chex millatiga mansub kishi dars berayotgan bo'lib, Roji Chaqiro'z maktab direktori Majid Qodiriyga musulmon bo'lmagan kishi bilan bir joyda ishlay olmasligini aytadi. Shunda Qodiriy rus tili o'qituvchisini ishdan bo'shatib, o'rniga rus litseyining bitiruvchi kursida tahsil olayotgan Ra'noxonim ismli toshkentlik qizni ishga oladi [16: 33].

Xullas, XX asr boshlarida Turkistondagi jadidchilik harakatida ayollar ham faol ishtirok etib, o'z orzu-maqсадlarini amalga oshirishga dadillik bilan kirishdilar. Jamiyatdagi muammolar va kamchiliklarni she'r va maqolalari, maktublari orqali ifoda etib, ularni bartaraf etish bo'yicha tavsiyalarini berdilar. Natijada Turkiston mintaqasining turli shaharlarida qizlarga ta'lim beruvchi jadid maktablari va rus-tuzem maktablari vujudga kela boshladi. Ziyoli va ma'rifatli otalar qizlarini bu maktablarda ta'lim olishiga qarshilik qilmadilar. Diniy va dunyoviy bilimlarni yetarli darajada egallagan iste'dodli qizlar maktablarni tamomlagach, jurnalistlik, muallimalik, tabiblik kabi kasblarni egallab, o'z xalqiga xizmat qilishni boshladilar.

Adabiyotlar

1. Behbudiy M. Hifzi sihati oila // Oyina, 1914. № № 47-52. 1915. № 1; Ayniy S. Musulmonlar hayoti // Turkiston viloyati gazet, 1906-yil 16, 19 iyul.
2. Fitrat A. Oila yoki oila boshqarish tartiblari. Toshkent: Ma'naviyat. 1998.
3. Abdulla Avloniy. Tanlangan asarlar. 2 jildlik. 1-jild. Toshkent: Ma'naviyat. 2020.
4. Tursunqul. 25-yillik pedagog // Maorif va o'qitg'uchi. 1926. № 4.
5. Radjabova D.N. Turkiston jadidlarining qarashlarida yoshlar va xotin-qizlar masalalari (XIX asrning oxiri - XX asr boshlari). Tarix fanlari nom ... dis. -Toshkent. 2003.
6. Tojiboyev R. Ma'rifat fidoyisi // Sog'lom avlod uchun. 1999. № 4-5.
7. Marianne Kamp. The New Woman in Uzbekistan. Islam, Modernity and Unveiling under Communism. University of Washington press Seattle and London. 2006.
8. Xotun kishi qozi bo'la oladimi? // Turkiston viloyatining gazet. 1912. 15 iyul.
9. Qosimov B. Erksevar shoira // O'zbek filologiyasining aktual masalalari. Ilmiy asarlar to'plami, № 532. Toshkent, 1977.
10. Qosimov B. Milliy uyg'onish: jasorat, ma'rifat, fidoyilik. Toshkent: Ma'naviyat, 2002.
11. Ash'or. Beshyog'och dahalik Nozimaxonim. Faryod. // Sadoi Turkiston. 1914-yil 8 iyul. № 25.
12. Layli. Tabriknoma // Sadoyi Turkiston. 1914-yil 28 may. № 13.
13. Toshkandlik muallima. Turkiston musulmalari tarafidan bir sado // Sadoi Turkiston. – 1914-yil 20 may. № 11.
14. Xonimlar tovushi // Sadoi Turkiston. – 1914-yil 11 iyul. № 26.
15. Turkistan'da Turk Subaylari. (1914-1923). Anlatan: Râci ÇAKIRÖZ. Yazan: Timur KOCAOĞLU. Türk Dünyası Tarih Dergisi (TDAV- İstanbul), Sayılar: 1-11 (1987).